

KICHIK MAKTAB YOSHDAGI BOLALARDA XULQ-ATVOR BUZISHLARNING ASOSIY KO'RINISHLARI VA TURLARI

Kubayev Ma'ruf Qosim o'g'li

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

"Pedagogika va psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi

kubayevmaruf35@gmail.com

(99) 898-12-89

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14575026>

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirda barcha davlatlar, millatlarda katta muammoga aylanib borayotgan mavzu ya'ni, kichik maktab yoshidagi bolalarda xulq-atvor buzishlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: G'ayriijtimoiy xatti-harakatlar. Sotsializatsiya. Giperaktiv. Norozilik. Infantil xarakterlar. Tajavuzkor xulq. Konformal holatlar. Simptomatik xulq ko'rinishlari.

Аннотация: В данной статье рассматриваются социально-психологические аспекты нарушений поведения у детей младшего школьного возраста, теме, которая становится большой проблемой во всех странах и народах.

Ключевые слова: Антисоциальное поведение. Социализация. Гиперактивный. Недовольство. Инфантильные движения. Агрессивное поведение. Конформные состояния. Симптоматическое поведение.

Abstract: This article deals with the socio-psychological aspects of behavior disorders in children of small school age, which is currently becoming a big problem in all countries and nations.

Key words: Antisocial behavior. Socialization. Hyperactive. Dissatisfaction. Infantile movements. Aggressive behavior. Conformal states. Symptomatic behavior.

KIRISH

Hozirgi kunda psixologiya fanining markaziy kategoriyasi hisoblanmish shaxs ijtimoiy hayotning barcha sohalarida muayyan funksiyalarni bajarishi orqali jamiyatning taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Barkamol avlod kamoloti g'oyasini turmushga tatbiq etish uchun istiqbolning dastlabki kunlaridanoq milliy ma'naviyat, milliy ta'lim va tarbiya muammolarini hal qilishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya

ongning mahsuli va ongning darajasi bo'lish bilan birga ongning rivojini ham ta'minlaydigan asosiy omillardan biridir.

Har bir shaxs o'z yosh davriga xos muayyan ijtimoiy munosabatlar egasi hamda unga jamiyat tomonidan ko'rsatidigan ko'plab iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy qolaversa, virtual olam ta'sirlarning ob'ekti hisoblanadi (E.G'. G'oziev, 2002). Shaxsning o'ziga xos xususiyatlari: xarakteri, temperamenti, qobiliyati ruhiy jarayonlarni boshdan kechirganda, mehnat faoliyatida, turmushda o'zini namoyon etadi. Demak, psixik jarayonlar, psixik holatlar va psixik xususiyatlarning o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hamda aloqadorlik shaxsning psixologik tuzilishini tashkil etadi. Hozirgi paytga kelib jahonda bo'lib o'tayotgan chuqur ijtimoiy o'zgarishlar ilgari yetarli darajada ahamiyat berilmagan bir qator fenomenlarga yangicha nazar bilan qarashni taqozo etmoqda. Ulardan biri insonlarning destruktiv faoliyatidir[1].

Xulq-atvorning buzilishi ko'pincha odamlar o'rtasidagi munosabatlardagi qiyinchiliklarning asosiy manbai hisoblanadi. O'quvchilarning xulq-atvoridagi buzilishlar o'qituvchilar, ota-onalar va o'quv jarayonining boshqa sub'ektlari uchun eng dolzarb muammolardan biridir. Kichik maktab yshidgi o'quvchilar tashqi muhit o'zgarishlaridan ta'sirlanishga moyildirlar. Yangi, g'ayrioddiy hamma narsani o'rganish, tezda katta bo'lish istagi, katta yoshlilarning odatlari va xulq-atvorini o'zlashtirish, tengdoshlaridan ortda qolishdan qo'rqish, kulgili ko'rinish - bularning barchasi ularda ko'pincha noqulay vaziyat tug'diradi. Va bular kichik o'quvchi xatti-harakatlarning buzilishiga ham ko'p o'rinlarda sababchi bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tilgan shaxsdagi g'ayriijtimoiy xulq-atvorlarning aksariyat tashqi muhit ta'sirida kichik maktab yoshida namoyon bo'ladi. Shu boisdan ayni shu davrda xulq o'zgarishlarini o'rganish maqsadga muvofiq sanaladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ko'plab ijtimoiy-psixologik adabiyotlar, manbalarda qayd etilishicha, destruktiv faoliyat tushunchasi zahirida insonning tashqi olamga nisbatan yo'naltirilgan maxsus faolligi shakli tushuniladi. Bu faollikning mohiyati esa turli ob'ekt yoki tizimlarni buzish yoki vayron qilishga intilishda namoyon bo'ladi.

Destruktiv faoliyat boshqa insonlar, jamiyat, davlat, tabiiy muhit, madaniy-tarixiy yodgorliklar, turli buyumlarga, shuningdek, shaxsning o'z-o'ziga ham qaratilishi mumkin.

K.Rodjersning ta'kidlashiga ko'ra, insonning barcha harakatlari qandaydir bir umumlashtiruvchi motiv asosida yuzaga keladi va amalga oshiriladi. Mazkur motivni u faollashuvga moyillik, rag'bat deb ataydi.

Rossiyalik psixolog Y.M.Antonyan tadqiqotlari destruktiv faoliyat deyarli doimo uzoq vaqt davom etadigan frustratsiya yoki norasolik hissi shakllanishi natijasida yuz berishini isbotlagan. Frustratsiya natijasida kelib chiqadigan destruktiv harakatlar ekstrapunitiv xarakter kasb etishi (yon-atrofdagi kishilarga, shu jumladan, frustratsiya holatiga umuman aloqasi yo'q butunlay notanish odamlarga, alohida narsa-buyumlar yoki ijtimoiy tuzilmalarga yo'naltirilishi) yoxud intropunitiv ahamiyatga ega bo'lishi (sub'ektning frustratsiya sababi o'zi ekanligini anglashi va jarohatlovchi vaziyatdan alkogolizm, giyohvandlik yoki suitsid orqali chiqishga harakat qilishi) mumkin.

Albatta, o'zini o'zi namoyon qila olmagan va frustratsiya holatida bo'lgan barcha odam ham destruktiv harakatlarni amalga oshiravermaydi. Bunda biologik omillar bilan bir qatorda turli ijtimoiy omillar, tarbiya va muhitning shaxs shakllanishidagi o'rni, insonning turli destruktiv, salbiy psixologik-manipulyatsion ta'sirlarga tushish xususiyatlarini ham inobatga olish zarur. Zero, inson destruktiv g'oyalar ta'siriga tushgach, destruktiv guruhlar a'zo bo'lishi va destruktiv faoliyatni amalga oshirishi isbotlangan haqiqatdir. Destruktsiyaga moyil odamlar bir qator xususiyatlarga ham egadir.

K.Leongardning shaxs tipologiyasiga ko'ra o'zini o'zi boshqarolmaslik, xohish va intilishlari yuzasidan nazoratning sustligi, fiziologik mayllarning ustuvorligi bu tipdagi shaxslarda uyg'unlashib ketadi. Ularga instinktivlik, impulsivlik, qo'pollik, mijg'ovlik, badqovoqlik, beadablik, orsizlik, dag'allikka moyillik xosdir. Bunday kishilar turli nizo va munozaralarni keltirib chiqarib, ularning faol ishtirokchisi bo'lishadi. Serjahl, serzarda, jizzaki bo'lib tez-tez ish joylarini o'zgartirib turishadi, jamoadagilar bilan chiqisha olmaydilar.

Shunday qilib, destruktiv faoliyatga o'z asosiy ehtiyojlarini qondirolmagan insonlar moyil bo'lib, E.Fromm ta'kidlaganidek, ular buzish, vayron qilish orqali o'z «Men»ini ifodalaydilar. Destruktivlik o'zining salmog'i, nufuzi, e'tibori yo'q ekanligini tan olish g'oyat qiyin bo'lgan bir sharoitda eng avvalo, dastlab o'z nazarida, keyin boshqalar nazdida ahamiyatli ekanligini isbotlashga urinishdir.

Psixologik jihatdan insonni har qanday (destruktiv yoki konstruktiv) faoliyatga yo'llovchi motivlarga uning xavfsizlik, hurmat, tan olinish va nihoyat o'z ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishi, o'zini o'zi namoyon qilishi ehtiyojlari kiradi. Shaxsning o'z imkoniyatlari, salohiyatini namoyon qilishga intilishi rus faylasuflari Y.P. Nikitin va N.E. Xarlamenkovalarning fikrlariga ko'ra, inson hayotiy faoliyatidagi eng katta rag'batlantiruvchi omil, qo'zg'atuvchi sababdir. Bu juda katta kuch bo'lib, har xil odamga turlicha ta'sir qilishi mumkin. Ya'ni, ayrim kishilar ijodkorlik faoliyati bilan shug'ullanib, o'zlaridagi bor ijobiy salohiyatni namoyon qilsalar, boshqalarning insoniylik qiyofasini yo'qotish darajasida tubanlashishlari ehtimoli mavjud.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik maktab yoshidagi bolalarda xulq-atvor buzishlari muammosini yurtimiz va xorij psixologlar tomonidan o'rganilgan. Ularning asarlarida bolalarning xatti-harakatlari buzilishining sabablari va shakllari batafsil tavsiflangan. Ammo xulq-atvor buzilishlari muammosi bo'yicha ko'plab tadqiqotlarga qaramay, bu muammo hali ham yetarli darajada o'rganilmagan. Kichik maktab yoshi o'quvchilarida xulq-atvor buzilishlarining paydo bo'lish sabablarini ijtimoiy jihatdan aniqlash mumkin (faoliyat va muloqotdagi ba'zi harakatlar, ularning shakllanishida buzilishlarga olib keladi. shaxsiyat va uning xulq-atvori) yoki organik (bularga emotsional nuqsonlar, aqliy zaiflik, markaziy asab tizimining organik buzilishlari va boshqalar kiradi).

Bolalik davridagi xulq-atvor buzilishlarining umumiy va eng asosiy omili oiladir. Agar bolaning bolaligi kundalik hayotiy vaziyatlarda ota-onalarning xatti-harakatlarining buzilishi bilan kechsa, buning natijasida u atrofidagi dunyoga xavf

va dushmanlik hissi paydo bo'lsa, bola xatti-harakatlarida buzilishlarni namoyon qila boshlaydi va bu uning hayotiy me'yoriga aylanadi.

Deviant xulq-atvor yuzaga kelishining yana katta sabablaridan biri kichik maktab o'quvchisining xarakteristik xususiyatlari ham bo'lishi mumkin. Bu davr o'quvchilarining xakteri ba'zi xususiyatlar bilan ajralib turadi: bevosita impulslar, motivlar ta'siri, tasodifiy sabablar, o'ylamasdan darhol harakat qilish tendentsiyasi. Bunda barcha holatlarni hisobga olgan holda ushbu hodisalarning sababi aniq: xulq-atvorni ixtiyoriy tartibga solishning yoshga bog'liq zaifligi, faol tashqi bo'shatish zarurati va boshqalar.

Binobarin, boshlang'ich maktab o'quvchilarining xulq-atvori buzilishini intizomsizlik bilan izohlaganimizda xatoga yo'l qo'yamiz. Ilohi hollarda, xulq-atvorning buzilishi bolaning neyrodinamik xususiyatlari, psixik jarayonlarning beqarorligi, psixomotor rivojlanishining kechikishi yoki aksincha, individual qobiliyatlar bilan belgilanadi. Shuningdek, xatti-harakatlarning buzilishi bolaning o'rganishdagi boshqa qiyinchiliklarga adekvat munosabati sifatida harakat qilishi mumkin. Shu bilan birga, bolaning xatti-harakatlarida biz qat'iyatsizlik, passivlik yoki negativizm, o'jarlik va tajovuzkorlikni kuzatishimiz mumkin. Salbiy tajriba va ta'sirlarning mavjudligi muqarrar ravishda xatti-harakatlarning buzilishiga olib keladi va tengdoshlar hamda kattalar bilan ziddiyatlarga sabab bo'lishi mumkin. L.S.Vigotskiy "ixtiyoriy harakat qilish qobiliyati boshlang'ich maktab yoshida asta-sekin shakllanadi. Ixtiyoriy diqqat, barcha yuqori ruhiy jarayonlar kabi, bola va kattalarning birgalikdagi faoliyatida shakllanadi. Kattalar bolaga bunday xatti-harakatni tashkil qilish vositalarini taqdim etadilar, natijada bu bolaning o'ziga xos harakat qilish uslubiga aylanadi" deb ta'kidlab o'tgan.

Xulq-atvorning buzilishi sabablari va namoyon bo'lishida sezilarli darajada farq qilganligi sababli, asosiy turlarni aniqlashga bir necha bor urinishlar qilingan. Shunday qilib, G.F. Kumarina, M.E. Vayner, Y.N. Vyunkova, I.V. Dubrovin xatti-harakatlarning quyidagi turlarini aniqladi:

- giperaktiv (ko'p hollarda bolaning neyrodinamik xususiyatlaridan

kelib chiqadi);

- norozilik;
- infantil;
- tajavuzkor;
- konformal;
- simptomatik.

Giperaktiv xatti-harakatlar. Giperaktivlik sindromining namoyon bo'lishi bolaning hayotining birinchi kunlaridan boshlab ota-onalarni tashvishga solishi mumkin. Bolalar ko'pincha jismoniy harakatlarni ortiqcha amalga oshirishadi, barcha ta'sirlarga (yorug'lik, shovqin) haddan tashqari sezgir, uyquasi kam, uyg'oq bo'lganda harakatchan va emotsional bo'lishadi. 3-4 yoshda bolaning biror narsaga diqqatini jamlay olmasligi aniq bo'ladi. U ertakni xotirjam tinglay olmaydi, diqqatni jamlashni talab qiladigan o'yinlarni o'ynay olmaydi. Uning faoliyati asosan tartibsiz bo'ladi. Bolaning xulq-atvorining buzilishi, ayniqsa, uyushgan xatti-harakatni talab qiladigan vaziyatlarda aniq ko'rinadi: masalan, bolalar bog'chasida darslar va ertaklar tinglash paytida.

I.V. Dubrovinaning ta'kidlashicha, giperaktivlik boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda xulq-atvor buzilishining eng keng tarqalgan shakllaridan biri hisoblanadi va bunday buzilishlar qizlarga qaraganda o'g'il bolalarda ko'proq qayd etiladi. R.Kembellning fikricha, giperaktivlik bilan diqqat buzilishi chambarchas bog'liqdir. Bolaning faolligi oshishi ta'lim olishdagi va boshqalarning unga nisbatan hislarini qabul qilishdagi qiyinchiliklarga olib keladi. Qolaversa, bolada idrok etish muammolarini ham keltirib chiqaradi. Bunda u qabul qilingan me'yorlar va xulq-atvor qoidalarini qasddan va ongli ravishda buzishga intiladi. Bolalar asosan kattalarning e'tiborini jalb qilish uchun bu usuldan foydalanadilar. Bola bu tanlovni ota-onasi u bilan juda kam muloqot qiladigan va g'amxo'rlik ko'rsatmaydigan holatlarda qiladi. Kuzatuvlarga ko'ra, namoyishkorona xulq-atvor ko'pincha avtoritar tarbiya uslubiga ega bo'lgan oilalarda kuzatiladi.

Norozilik xulq-atvori. Bugungi kunda norozilik xulq-atvorining turli shakllari mavjud: negativizm va qaysarlik ko‘rinishida. Negativizm - bu bolaning unga ta’sir qiladigan muhitga asossiz qarshilik ko‘rsatishi. Bolalarning negativizmi o‘zini asossiz ko‘z yoshlari, beadablik, qo‘pollik va aksincha, yopiqlik, xafagarchilik va begonalashuvda namoyon qilishi mumkin. Bunday norozilik xulq-atvori tarbiyasi noto‘g‘ri bo‘lgan bolalarda sodir bo‘ladi. Bolaning qaysarligi mas’ul bo‘lgan kattalarga emas, balki tarbiya me’yorlariga, bolaga yuklangan turmush tarziga qarshi qaratilgan bo‘ladi. Qaysarlik deganda bolaning o‘zini tutishini talab qiladigan munosabati tushuniladi. Biror narsa, u buni chindan ham xohlagani uchun emas, balki kattalardan talab qilgani uchun sodir bo‘lishi lozim bo‘ladi.

Boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarning qaysarligi yangi turmush tarziga moslashish muvaffaqiyati, maktabda o‘qishning boshlanishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Infantil xatti-harakatlar. Infantil bolaning xatti-harakati rivojlanishning eng dastlabki bosqichida erta yoshga xos bo‘lgan xususiyatlarni saqlab qoladi. Bola jismoniy funktsiyalarning normal rivojlanishi bilan integral-shaxsiy shakllanishlarning yetukligi bilan ajralib turadi. Odatda, infantilizm bola maktabga borguncha sezilmaydi. Boshlang‘ich maktab yoshidagi infantilizmning belgilari - o‘yinga qiziqishning ustunligi, ixtiyoriy zo‘riqishlarni amalga oshira olmaslik, mavhum-mantiqiy fikrlashning nisbiy zaifligi, og‘zaki-semantik xotira, kognitiv faollikning etishmasligi, maktab qiziqishlarining yo‘qligi va jamoda bo‘lish istagi sustligi, qolaversa yosh bolalarning tajovuzkor xatti-harakati bilan namoyon bo‘ladi.

Tajavuzkor xatti-harakat. Agressiv xatti-harakat - bu maqsadli buzg‘unchi xatti-harakatlar. Agressiv bola jamiyatdagi odamlar hayotining me’yor va qoidalariga rioya qilmaydi, “hujum ob’yektlari”ga zarar yetkazadi, odamlarga jismoniy shikast yetkazadi va ularga psixologik noqulaylik tug‘diradi. L.S.Vigotskiyning ta’kidlashicha, bolaning tajovuzkorligi tajovuzkor ko‘rinishlarning chastotasi, shuningdek, ogohlantirishlarga mos bo‘lmagan reaksiyalarning intensivligi bilan namoyon bo‘ladi.

Agressiv xatti-harakatlarga duchor bo'lgan bolalar odatda impulsiv, asabiy va tez jahldor bo'ladi; hissiy-irodaviy sohaning o'ziga xos xususiyatlari - tashvish, hissiy beqarorlik, o'zini o'zi boshqarish qobiliyatining pastligi, nizoga moyillikni ortishi bilan xarakterlanadi. S.N. Enikolopovning fikricha, bolaning tajovuzkor harakatlari ko'pincha maqsadga erishish vositasi bo'lib, psixologik ozod bo'lish, e'tiborga, o'zini o'zi tasdiqlashga, o'zini anglashga bo'lgan bloklangan va qondirilmagan ehtiyojni almashtirish usulidir.

Konformal xatti-harakatlar. Bolaning konformal xulq-atvori tashqi sharoitlarga va boshqa odamlarning talablariga to'liq bo'ysunadi. Bu harakatlarning to'liq asosi beixtiyoq taqlid bilan izohlanadi.

Xulq-atvor qoidalarini o'zlashtirish, muhim voqealarni baholash va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishda kattalarga tabiiy taqlid qilish konformal xulqqa xos hisoblanadi.

Semptomatik xatti-harakatlar. Bolaning simptomatik xulq-atvori - bu hozirgi vaziyatning bola uchun chidab bo'lmaydigan darajada o'ziga xos tarzda ogohlantiruvchi belgi, signalidir (masalan, qusish yoki ko'ngil aynishi oiladagi noxush, og'riqli vaziyatning aksi sifatida). Ko'pincha simptomatik xatti-harakatlar o'z oilasida va o'qishida noqulay bo'lgan bolalarda kuzatilishi mumkin. Bolalar bu xatti-harakatni noqulay vaziyatdan foydalanish imkoniyati sifatida ko'rishadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida aytilganlarning barchasini umumlashtirib, biz quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin: boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning xatti-harakatlarining buzilishi muammosi bugungi kunda dolzarbdir. Ushbu muammo bo'yicha mahalliy va xorijiy psixologlarning tadqiqotlari natijalari xulq-atvor buzilishlarining asosiy sabablari va turlarini nomlash imkonini beradi. Xulq-atvor buzilishlarining muhim qismi ijtimoiy-psixologik omillar tufayli yuzaga keladi. Bolalarning xulq-atvorida ijobiy o'zgarishlar bo'lishi uchun imkon qadar erta buzilishlarni sezish va tuzatish va rivojlantirish ishlarini boshlash kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- [1] Ch.Venar “Психопатология развития детского и подросткового возраста” /Ч. Венар.–СПб.:2007.С. 68-72.
- [2] Umarov B. M., Rajabova F. P. Voyaga yetmaganlarda xulq og‘ishi va tarbiya buzilishining ijtimoiy-psixologik omillari//Современное образование (Узбекистан). – 2015. – №. 8. – С. 16-21.
- [3] Van der Kolk, B. A., Perry, J. C., & Herman, J. L. (1991). Childhood origins of self-destructive behavior. American journal of Psychiatry, 148(12), 1665-1671.
- [4] Zmanovskaya Y.V. Девиантология: (Психология отклоняющегося поведения): Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. — 2-е изд., испр. — М.: Издательский центр «Академия», 2004.- 288 с.
- [5] Elkonin D.B. Rivojlanish psixologiyasi: O‘quv qo‘llanma.- М., 2001 – 624 b.
- [6] Polskaya N.A. “Аутодеструктивное поведение в подростковом и юношеском возрасте” //Консультативная психология и психотерапия. – 2015. – Т. 23. – №. 4. – С. 176-190.
- [7] Bekmurodova G. B. Ijtimoiy destruktsiyaning namoyon bo‘lish xususiyatlari //Journal of Social Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 02. – S. 72-75.
- [8] Karvasarayskiy B.D. Психотерапия: Учебник /Под ред. Б.Д.Карвасарского, -2-е. изд., перераб. и доп. - СПб.: Питер, 2002. -672с.